

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy nazariy jihatlar

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, Uzakov Muhammadjon Toshtemirovich

Научно-теоретические аспекты эффективного использования производственных ресурсов на промышленных предприятиях

Хамраева Сайёра Насимовна, Узakov Мухаммаджон Тоштемирович

Scientific and theoretical aspects of effective use of production resources at industrial enterprises

Khamraeva Sayyora Nasimovna, Uzakov Mukhammadjon Toshtemirovich

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Tushunchalar apparati tahlil qilingan, resurslardan oqilona foydalanishni baholash va tashkil etish bo'yicha asosiy yondashuvlar ajratib ko'rsatilgan. Ayniqsa, raqamlashtirish va texnologik transformatsiya sharoitida ishlab chiqarish resurslarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalariga alohida e'tibor qaratilgan. Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida resurslarni tejashga tizimli va kompleks yondashuv zarurligi asoslab berilgan.
- **Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish resurslari, samaradorlik, resurslarni tejash, sanoat korxonasi, raqamlashtirish, mehnat unumdorligi, boshqaruv.
- **Аннотация.** В статье рассмотрены научно-теоретические основы эффективного использования производственных ресурсов на промышленных предприятиях. Проведен анализ понятийного аппарата, выделены ключевые подходы к оценке и организации рационального использования ресурсов. Особое внимание уделено современным тенденциям управления производственными ресурсами в условиях цифровизации и технологической трансформации. Обоснована необходимость системного и комплексного подхода к ресурсосбережению как фактору повышения конкурентоспособности предприятий.
- **Ключевые слова:** производственные ресурсы, эффективность, ресурсосбережение, промышленное предприятие, цифровизация, производительность, управление.

- **Abstract.** The article examines the scientific and theoretical foundations of the effective use of production resources at industrial enterprises. The conceptual framework is analyzed, and the main approaches to assessing and organizing the rational use of resources are highlighted. Particular attention is paid to modern trends in managing production resources in the context of digitalization and technological transformation. The necessity of a systematic and comprehensive approach to resource saving as a factor in increasing the competitiveness of enterprises is substantiated.
- **Keywords:** production resources, efficiency, resource saving, industrial enterprise, digitalization, productivity, management.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida sanoat korxonalari uchun asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlashdir. O'zbekistonning 2022–2026 yillar taraqqiyot strategiyasida ham bu masala alohida o'rin tutadi. Xususan, neft-gaz sanoatida mahsulot tannarxini pasaytirish va resurs tejamlorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish muhim vazifa sifatida belgilangan. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 3-ustuvor yo'nalishi ya'ni "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" da kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish asosiy maqsadlardan biri qilib olingan [1].

Bugungi kunda neft-gaz sanoatini rivojlantirishda bir qator makro va mikro iqtisodiy darajalardagi muammolar mavjud. Ushbu masalalarni hal qilish O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitida respublikamiz neft-gaz korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va ularning samaradorligini oshirish yullarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shu jihatdan dissertatsiyada neft-gaz sanoati korxonalarida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish holatini tahlil qilib, ularning samaradorligini oshirishga imkon beradigan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib quyilgan. Ushbu ilmiy-amaliy yondashuvlar natijalarining amaliyotga joriy etilishi respublikamizda neft-gaz sanoatini barqaror rivojlanishi muammosini hal qilishga hamda mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Shu sababli xalqimizning keng iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini qondirishga neft-gaz sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Ishlab chiqarish resurslari" tushunchasi ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladi. E.M. Korotkov [2] tomonidan qayd etilishicha, resurslardan samarali foydalanish deganda, minimal xarajatlar evaziga maksimal natijalarga erishish tushuniladi. Muallif fikriga ko'ra, bunday samaradorlikka erishish asosan ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy darajasi hamda innovatsiyalarni joriy etish holatiga bog'liq.

P. Samuelson va V. Nordhaus asarlarida samaradorlik sarflangan resurslarga nisbatan erishilgan natijalar bilan o'lchani [3]. Ularning fikricha, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa sanoat korxonalarida texnik yangilanish ehtiyojining dolzarbligini ko'rsatadi.

O.S. Vixanskiy va A.I. Naumov [4] tadqiqotlariga ko'ra, samaradorlikka erishishda mehnat vaqtini to'g'ri tashkil etish, xodimlarni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish va kadrlar salohiyatidan to'liq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular, ayniqsa, malaka oshirish dasturlari mehnat unumdorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini alohida ta'kidlaydilar.

V.V. Gluxov va V.A. Chlenov [5] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hisobiga katta hajmdagi resurslarni tejash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, logistika va omborxona jarayonlarini takomillashtirish ishlab chiqarish rentabelligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

A.G. Granberg [6] tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish (ERP, MES, IoT tizimlari orqali) resurslarning sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish, tormoz nuqtalarni aniqlash va ishlab chiqarish quvvatlarini mavjud yuklama darajasiga qarab qayta taqsimlash imkonini beradi.

OECD [7] hisobotida keltirilishicha, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida "Lean production" (ziyonni minimallashtirishga qaratilgan ishlab chiqarish) va "Six Sigma" (sifatni yaxshilash metodologiyasi) kabi zamonaviy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Bu metodlar ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlarida yo'qotishlarni kamaytirish, sifatni oshirish va optimal resurs taqsimotini

ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'zbekistonlik bir qator olimlar ham sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Xususan, O'zbekistonlik iqtisodchi olim A.T. Qurbonov [8] o'z tadqiqotida ta'kidlaydiki, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda birinchi navbatda texnologiyalarni modernizatsiya qilish va mahalliy xomashyodan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. U resurslar samaradorligini oshirishda davlat siyosati, xususan sanoatni raqamlashtirish yo'nalishidagi tashabbuslarni ham alohida ko'rsatib o'tadi.

M.A. Saidov [9] sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning ilmiy asoslarini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, resurslardan oqilona foydalanishning asosiy shartlaridan biri — ishchi kuchi, texnologiya va moliyaviy resurslarni bir-biriga mutanosib taqsimlashdir. Uning ishida logistika tizimini takomillashtirish orqali resurs tejamkorligiga erishish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

B.M. Xojiyev [10] sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik muammolarini tahlil qilar ekan, bu holatni ichki menejment tizimining samarasizligi va resurslar harakati ustidan nazoratning yetishmasligi bilan bog'laydi. U korporativ boshqaruv modellarining samarali resurs boshqaruviga ta'siri haqida misollar keltiradi.

N.X. Abdullayev [11] ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarni (ERP tizimlari, sensor nazorat, ma'lumotlar tahlili) joriy qilish orqali resurslarni tejash va ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etishning istiqbollari ko'rsatadi. Uning fikricha, raqamli yechimlar resurslardan foydalanish samaradorligini 15–20% gacha oshirish imkonini beradi.

D. Alimov [12] Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoyda qo'llanilayotgan "Lean production" va "Total productive maintenance" usullarini o'rganib, ularni mahalliy sanoat korxonalari faoliyatiga joriy etish imkoniyatlarini tahlil qiladi. U texnik xizmat ko'rsatish tizimini avtomatlashtirish orqali resurslardan uzluksiz va tejamli foydalanish mumkinligini isbotlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishni o'rganishga har tomonlama nazariy tahlil va tizimli yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash uchun qiyosiy tarixiy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy tizimlarda, jumladan, turli yo'nalishdagi zamonaviy sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bunday samaradorlikni baholash bo'yicha metodik vositalarni to'g'ri qo'llashga bevosita bog'liqdir.

Mazkur masalani hal qilishda zamonaviy iqtisodiy fan doirasida usullarining yetarlicha keng doirasi qo'llaniladi. Ushbu tadqiqot mualliflari tomonidan bu usullarning asosiy turlari 1-jadvalda tizimlashtirib bayon etilgan.

Umuman olganda, 1-jadvalda keltirilgan korxonalarda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini tadqiq qilish usullari orasida eng keng qo'llaniladiganlari — bu miqdoriy, xususan, iqtisodiy-statistik tahlil usullaridir. Bunday usullar orasida eng sodda bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi turli jihatlarni aks ettiruvchi moliyaviy-iqtisodiy mezonlarning statik tahlili hisoblanadi. An'anaviy ravishda bu yerda mutlaq va nisbiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, nisbiy samaradorlik mezonlaridan foydalanish nisbatan afzalroq sanaladi. Sababi, ushbu turdagi ko'rsatkichlar turli miqyosdagi, har xil ishlab chiqarish yo'nalishlariga ega, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi, hatto turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlariga mansub tashkilotlar faoliyati va rivojlanish samaradorligini solishtirish imkonini beradi.

Tashkilot faoliyatining samaradorligini ifodalovchi eng ko'p uchraydigan nisbiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- rentabellik ko'rsatkichlari, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan yaratilgan yalpi yoki sof foydaning iqtisodiy asosga (odatda, ushbu foydani shakllantiruvchi xarajatlariga) nisbati: aktivlar qiymati, ishlab chiqarish xaziralari, kompaniya asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymati, mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum va boshqalar;
- aylanish ko'rsatkichlari, bu ko'rsatkichlar tashkilotning biznes faolligi darajasini aks ettiradi va mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan tushgan tushumning aktivlar yoki xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kapitali kabi moliyaviy-iqtisodiy asoslarga nisbati bilan belgilanadi;
- absolyut, tezkor va joriy likvidlilik ko'rsatkichlari, ya'ni tashkilotning to'lovga layoqatlilik darajasini — ichki va tashqi iqtisodiy subyektlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish imkonini aks ettiradi;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, ya'ni moliyalashtirishning o'z va jalb etilgan manbalari nisbati, uzoq muddatli qarz kapitalini jalb qilish koeffitsienti, o'z mablag'lari tarkibi va tuzilmasi ko'rsatkichlari va boshqalar. ular kompaniya faoliyatining moliyaviy barbod bo'lish xavfi darajasini ko'rsatadi.

1-jadval.

Zamonaviy sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashning asosiy usullari

USULLAR GURUHI	ISHLAB CHIQARISH RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ASOSIY USULLARI
1. Miqdoriy	- iqtisodiy tahlil va korxonaning xo'jalik faoliyatining statistik ko'rsatkichlarini baholash; - iqtisodiy faoliyatning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash; - ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligining turli ko'rsatkichlari asosida baholash; - ishlab chiqarish funksiyalarini tadqiq qilish va modellashtirish; - ishlab chiqarish resurslarining cheklovlarini baholash bo'yicha iqtisodiy-matematik tahlil.
2. Sifat jihatidan	- ekspert baholari va modellar; - to'g'ridan-to'g'ri kuzatish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini o'rganish; - SWOT-tahlil; - normativ-huquqiy tahlil (iqtisodiy va huquqiy aspektlar).
3. Kompleks	- kompleks iqtisodiy tahlil usullari; - bir nechta usullarning birgalikda qo'llanilishi asosida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash.

Tashkilotlar rivojlanishining samaradorligini o'rganishga oid sifat tahlil usullariga iqtisodiy nazariyaning neoinstitutsional yo'nalishida shakllangan metodik yondashuvlar ham kiradi. Bunday yondashuvlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- o'yinlar nazariyasi;
- ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi;
- tadbirkorlik shartnomalari nazariyasi;
- tranzaksion xarajatlar nazariyasi;
- tarmoq bozorlarining nazariyasi va boshqalar.

Neoinstitutsional paradigmasi doirasida iqtisodiy tizimlar, shu jumladan, har xil miqyos va ishlab chiqarish yo'nalishiga ega firmalar samaradorligini tadqiq qilishda ularning moliyaviy-iqtisodiy natijalari quyidagi mezonlar asosida baholani: tranzaksion xarajatlar tarkibi va tuzilmasini optimallashtirish, tadbirkorlik shartnomalarining samaradorligini ta'minlash, turli shakldagi moliyaviy-iqtisodiy xatarlar darajasini minimallashtirish va boshqalar.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashning kompleks metodik yondashuvi sifatida muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard — BSC) ham qo'llaniladi. Ushbu kontseptual yondashuvning metodologik asoslari 1990-yillarning oxirida amerikalik iqtisodchilar R. Kaplan va D. Norton tomonidan asoslab berilgan. Shundan beri BSC metodologiyasi keng tarqaldi, jumladan, Rossiya tahliliy amaliyotida ham.

Klassik BSC modeli doirasida tashkilot rivojlanishi shunchalik samaraliroq hisoblanadiki, qanchalik moliyaviy-xo'jalik rivojlanishining turli jihatlarini aks ettiruvchi mezonlar bloklari

o'zaro muvozanatli bo'lsa. Umuman olganda, BSC metodologiyasida sanoat korxonasining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijadorligini ifodalovchi mezonlar quyidagi bloklarda jamlangan:

- tashkilotning inson resurslari bloki;
- ishlab chiqarish salohiyati bloki;
- investitsiyaviy va innovatsion faollik bloki;
- kompaniya faoliyatining moliyaviy natijalari bloki.

Bizning fikrimizcha, BSC — bu turli yo'nalishdagi zamonaviy kompaniyalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining samaradorligini ta'minlashga oid tendensiyalar, omillar va muammolarni o'rganishda yetarlicha sifatli va natijador metodik yondashuvdir.

Biroq, uning asosiy kamchiligi shundaki, klassik metodologiya doirasida ko'plab zamonaviy tashkilotlar uchun muhim bo'lgan xo'jalik jarayonlari, masalan, marketing faoligi, korporativ boshqaruv sifati, raqamlashtirish jarayonlarining intensivligi va natijadorligi kabi moliyaviy-iqtisodiy mezonlar yetarlicha aks ettirilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish zamonaviy iqtisodiy muhitda strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar, resurslarni real vaqt rejimida boshqarish tizimlari, korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda xodimlar salohiyatidan to'liq foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, "Lean Production", "Six Sigma" va BSC kabi yondashuvlar mahalliy sanoatga moslashtirilgan holda joriy etilishi lozim. Umuman olganda,

sanoat korxonalari faqat ishlab chiqarish quvvatlarini emas, balki bilim, axborot va ma'lumotlarni resurs sifatida boshqarishga o'tishi kerak; raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali resurslardan foydalanish darajasi 20-25% gacha oshishi mumkin; samarali resurs boshqaruvi faqat ichki tizimlar bilan emas, balki mintaqaviy ishlab chiqarish klasterlari orqali ham amalga oshirilsa, ko'p marta sinergik natijalar beradi.

Fikrimizcha, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim, xususan:

1. ERP, MES, IoT tizimlarini kichik va o'rta sanoat korxonalarida tatbiq qilish bo'yicha davlat granti dasturlari ishlab chiqilsin.
2. "Resurs samaradorligi indeksi" ishlab chiqilib, har bir sanoat korxonasi faoliyatini baholashda reyting ko'rinishida jamoatchilikka e'lon qilib borilsin.
3. Yirik korxonalar bilan kichik ishlab chiqaruvchilarni integratsiyalovchi vertikal sinergiyalar yaratilishi orqali umumiy resurs tejamkorlik oshirilsin.
4. Mahalliy universitetlar va sanoat o'rtasida "digital twin" texnologiyasi asosida tajriba laboratoriyalari ochilsin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Xamrayeva Sayyora Nasimovna Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası mudiri, i.f.d., professor / Хамраева Сайёра Насимовна Заведующий кафедрой «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета, доктор философских наук, профессор / Khamraeva Sayyora Nasimovna Head of the Department of Innovative Economics, Doctor of Philosophy, Professor Karshi State Technical University**

► xamrayevasayyora@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0001-6516-5226>

2. **Uzakov Muhammadjon Toshtemirovich QDTU 1-kurs magistranti / Узаков Мухаммаджон Тоштемирович Студент 1-го курса магистратуры КГТУ / Uzakov Mukhammadzhon Toshtemirovich 1st year student of the KSTU Master's program**

► muhammad_2382@mail.ru

■ <https://orcid.org/0009-0004-4634-7277>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 28.01.2022 yilda qabul qilingan PF-60-sonli farmoni.
- [2]. Коротков Е.М. Управление производственными ресурсами предприятий // ИНФРА-М. – 2019. – №5. – С. 112.
- [3]. Самуэльсон П., Нордхауз В. Экономика (19-е изд.) // Вильямс. – 2015. – №4. – С. 88-102.
- [4]. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент (6-е изд.) // Юрайт. – 2020. – №2. – С. 56-61.
- [5]. Глухов В.В., Членов В.А. Организация производства на предприятии // Питер. – 2018. – №3. – С. 74-80.
- [6]. Гранберг А.Г. Инновационная экономика и цифровая трансформация промышленности // Наука. – 2021. – №1. – С. 19-25.
- [7]. Resource Efficiency and Circular Economy: Best Practices // OECD Publishing. – Париж, 2020. – №6. – С. 5-38.
- [8]. Qurbonov A.T. Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yo'llari // Iqtisodiy taraqqiyot. – 2019. – №4. – B. 52-58.
- [9]. Saidov M.A. Sanoat korxonalarida resurs tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etish // Toshkent moliya instituti ilmiy xabarları. – 2021. – №2(66). – B. 33-38.
- [10]. Xojiyev B.M. Korxona resurslaridan samarali foydalanish va unga ta'sir qiluvchi omillar // O'zbekiston iqtisodiyotining muammolari. – 2020. – №3. – B. 45-50.
- [11]. Abdullayev N.X. Raqamlashtirish jarayonida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish // Ilm va amaliyotda innovatsiyalar. – 2022. – №1. – B. 21-27.
- [12]. Alimov D. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarning ahamiyati // O'zbekistonda bozor, pul va kredit. – 2021. – №2. – B. 60-66.
- [13]. Хамраева С. Н., Жаббарова Н. Ф. Сущность и преимущества рейтинговой системы оценки при анализе конкурентоспособности регионов // Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 717-726.
- [14]. Khamraeva S. N. THE CONCEPT AND DEVELOPMENT TREND OF THE FOURTH INDUSTRIAL REVOLUTION-"INDUSTRIYA-4" //Ethiopian International Journal of Multi-disciplinary Research. – 2024. – T. 11. – №. 11. – С. 272-275.